

BIOLOGIYA FANINI INTEGRATSIYALAB O'QITISH

Qayumova Dilbar

Samarqand viloyati Bulung'ur tumani

46- umumiy orta talim maktabining biologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada biologiya fanini oqitishdagi samarali metodlar haqida mulohaza yuritilgan. Qolaversa biologiyani oqitishda boshqa fanlar bilan ham bogliqlik holatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit sozlar: biologiya, metodika, metod, didaktika.

Biologiya oqitish metodikasi pedagogikaning bir qismi bolgan didaktika bilan juda yaqin aloqadadir. Agar didaktika oquvchilar tomonidan bilimlar, konikmalar va malakalarni ozlashtirish qonunlarni organsa va u maktabdagi barcha oquv fanlari uchun oqitish nazariyalarni va printsiplarini ishlab chiqsa, biologiya oqitish metodikasi biologiya bilan bogliq oqitish va tarbiyalash mazmuni, shakllari, va metodlari hamda vositalari bilan bogliq nazariy va amaliy masalalarni ishlab chiqadi. Biologiya oqitish metodikasi psixologiya bilan uzviy aloqadadir. Chunki, biologiyani oqitish oquvchilarning yosh xususiyatlariga mos bolgan taqdiridagina samara beradi. Masalan osmirlarda yahni V-VI sinf oquvchilarida diqqat beqaror bolgani sababli biologiya oqituvchisi dars jarayonida bir necha metodlardanfoydalanib, oquvchilar faoliyatini almashtirib turadi, hamda ularning tafakkurini konkret ekanligini ehtiborga olib, korgazmali vositalardan koproq foydalaniladi. Yuqori sinflarda esa oquvchilar diqqati barqarorlashgani va ularda abstrakt tafakkurivojlangani uchun darslar koproq mahruza shaklida otkazilishi va bir, ikki metoddan foydalanish kifoya qiladi. Biologiya oqituvchi biologik bilimlarning harbir inson hayoti va mehnatidagi rolini chuqur anglashi, bunga ishonch hosil qilishi lozim, bu shunday ishonchni oquvchilarda tarbiyalash uchun zarurdir. Maktabda oqituvchining muvaffaqiyatli ish olib

borishining birinchi sharti ana shudir, chunki tarbiyalovchi tahlim jarayoni ishonchga asoslanadi. Biologiya oqituvchisining kasbi, oquvchilarga nega har bir odam biologiyani organish zarurligini singdirishi uchun yuqori saviyadagi bilim va mustahkam idorani talab etadi. Biologiya oqitish metodikasi biologiya fani bilan uzviy aloqador. U biologik fanlarning deyarli barcha sohalari: botanika, zoologiya, odam anatomiyasi va fiziologiyasi, tsitologiya, biokimyoy, embriologiya, sistematika, ekologiya, evolyutsion tahlimot, antropologiya molekulyar biologiya fan asoslarini ozida ifoda qiladi. Tirik tabiat vakillarining tashqi, ichki tuzilishini hayot faoliyatini tashqi muhit bilan aloqasini togri tushuntirish osimlik, zamburug, hayvon, mikroorganizmlarni aniqlash, ulardan mikro va makropreparatlar tayyorlash, ular ustida kuzatish, tajribalar olib borish, oqituvchidan yaxshi nazariy bilim, amaliy tayyorgarlikni talab qiladi. Lekin maktab biologiya oquv fani bilan biologiya fani orasida muhim tafovutlar borligini oqituvchi yaxshi bilish kerak. Biologiya fanining asosiy maqsadi tirik va olik tabiati togrisida tadqiqot otkazishi orqali yangi bilimlarni hosil qilish bolsa, maktab biologiya oquv fanining maqsadi, oquvchilarning yoshiga mosravishda ularga biologik bilimlar, yahni biologik tushuncha, qonunlar, nazariyalar berishdan bilimlar va uni tushuntirishdan iborat. Maktab biologiya kursida fan emas, balki fan asoslari — oquvchilar uchun zarur asosiy mahlumotlar mujassamlashgan. Shu bilan birga maktab biologiya kursi «kichik fan» emas, balki oquvchilarning rivojlanishi va tarbiyasiga komak beruvchi biologiyani asosiy tushunchalar sistemasi sanaladi. Xulosa shuki, oquv fani ozinging asosiy bilim va mahlumot berish funksiyasidan kelib chiqqan holda mahlum tartib asosida tuzilgan. Shu bilan birgalikda zamonaviy pedagogik, axborot texnologiyalarni qollash, biologiya oqitishda innovatsion yondashuv hosil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avazov Sh. Qishloq maktablari yuqori sinf oquvchilarini olkashunoslik faoliyat jarayonida ekologik tarbiyalash.-T.: Ped.fan.nom.dis. 1993. — 142 b